



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-14-116-11-163-K/25 Farg‘ona tumani

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi
“Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya
va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari
to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda 2025-yilning
yanvar-sentyabr oylari davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida**

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-440-sonli** qaroriga Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, ishga solinmagan imkoniyatlardan tuliq va samarali foydalanish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash, aholining munosib turmush darajasi va bandligini ta’minlash bo‘yicha yangi imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-440-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimi X.Inomovning hisoboti to‘g‘risida”gi tuman hokimi hisobotini eshitib va yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Farg‘ona tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-dekabrdagi "Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-440-sonli qarori ijrosi yuzasidan tumanda 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman hokimi X.Inomovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg'ona tuman hokimining o'rinbosarlari (O.Abduraximov, I.Toshpo'latov, M.Qodirxonov, *lavozimi bo'yicha*, A.Axrоров)lar, bo'lim, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

2.1. Iqtisodiy barqarorlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash:-

- Tumanning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalangan holda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish.
- Xususiy sektor faoliyatini rag'batlantirish, kichik va o'rta biznes uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirish.
- Qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, tomorqadan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish va aholining o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish.

2.2. Infratuzilma va hududiy rivojlanish:-

- Mahalla va qishloqlarda yo'l, ichimlik suvi, elektr energiyasi va kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholi uchun qulay infratuzilma yaratish.
- "Mahallabay ishlash" tizimi doirasida mahalla fuqarolar yig'ini, "yettilik" vakillari faoliyatini muvofiqlashtirish, aholi bilan doimiy muloqotni ta'minlash.
- Har bir mahallada aholining ehtiyojidan kelib chiqqan holda obodonlashtirish, yashil hududlar tashkil etish va sanitariya holatini yaxshilash ishlarini kuchaytirish.

2.3. Ijtimoiy soha va aholini qo'llab-quvvatlash:-

- Kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka, hunarmandchilikka jalb etish.

- “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”dagi fuqarolarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash.
- Ta’lim, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalarida xizmatlar sifatini oshirish, yoshlar tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish.

2.4. Ma’naviy muhit va jamoatchilik faolligi:-

- Mahallalarda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni saqlash, milliy qadriyatlar va urf-odatlarini asrash hamda targ‘ib qilish.
- Yoshlar bilan ishlash tizimini mustahkamlash, sport va madaniy tadbirlarni ko‘paytirish, voyaga yetmaganlar tarbiyasida oilalar mas’uliyatini oshirish.
- Jamoatchilik va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, fuqarolar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

2.5. Ijro intizomi va hisobot tizimi:-

- Belgilangan vazifalar ijrosini muntazam nazorat qilish, har oy yakuniga qadar Xalq deputatlari tuman Kengashiga aniq hisobot taqdim etish.
- Har bir sohada amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini baholash va joylardagi muammolarni o‘z vaqtida hal etish.
- Ijro intizomini kuchaytirish, mas’ul rahbarlarning shaxsiy javobgarligini ta’minlash.
- Bajarilgan ishlar bo‘yicha har oyining 1 sanasiga qadar Xalq deputatlari tuman Kengashiga tegishli hisobotni kiritilishi ta’minlansin.

3. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH